

## YANGI O‘ZBEKISTONDA MOLIYA VA BANK XIZMATLARI BOZORINI YANADA RIVOJLANTIRISH

**Jumaeva Guzal Sherxon qizi, Jo‘rayeva Gulnoza Komiljon qizi**

TDIU, Korporativ boshqaruv fakulteti, KB-75, 4-kurs

Email: [guzaljumayeva19@gmail.com](mailto:guzaljumayeva19@gmail.com), [gulnozajorayeva27@gmail.com](mailto:gulnozajorayeva27@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Respublikamizda bank-moliya tizimi barqarorligini ta’minlashga katta e’tibor berilayotganligi tufayli mamlakatimizda barpo etilgan bank-moliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, uning jahon moliya bozoridagi nufuzi ortib borishi, shuningdek mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, qator nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e’tirof etilmoqda. Ushbu maqolada yurtimizda bank va moliya xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishdagi muammolar va ularga bo‘lgan taklif, mulohazalarimizni yoritishga haraka qilamiz.

**Tayanch so‘zlar:** moliya, bank, moliya bozori, bank xizmatlari, raqamli iqtisodiyot.

### ABSTRACT

Due to the great attention paid to ensuring the stability of the banking and financial system in the country, the stable and reliable functioning of the banking and financial system, its growing prestige in the global financial market, as well as our bold steps to modernize our country. recognized by organizations. In this article, we will try to highlight the problems of further development of the banking and financial services market in our country, as well as our suggestions and comments.

**Keywords:** finance, banking, financial market, banking services, digital economy.

### KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorida, shu jumladan bank-moliya tizimida o‘tkazilayotgan islohotlar natijasida zamonaviy jahon andozalariga va talablariga mos keladigan moliya-bank tizimi hamda bozor infratuzilmasi bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda, moliya-bank sohasini yanada erkinlashtirishga qaratilgan qator qonunchilik tashabbuslari va ulardan kelib chiquvchi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank tizimi,uning

xizmatlari va moliya bozorini isloh qilishni ijobiy tendensiyalar 2016-yildayoq ko'zga tashlangan edi. Biroq, davlat banklari O'zbekistondagi milliy bank tizimining salbiy natijasining asosiy manbai bo'lib qolmoqda. Davlat aktivlariga ega bo'lgan tijorat banklarida hukumatdan olingan mablag'lar ulushi hali ham yuqori hisoblanadi. 2018-2020-yillarda kredit tashkilotlari soni 55 taga yetdi, shu jumladan 4 ta tijorat banklari (Poytaxt bank, Tenge bank, Tenge Bank, TBC Bank, Anor Bank), 33 ta mikrokredit tashkilotlari va 18 ta lombardlar. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari aktivlari 366,1 trln. so'mga yetdi va 2017-yilga nisbatan 120 foizga o'sdi. Ushbu davrda o'rtacha yillik real o'sish (devalvatsiyani hisobga olmagan holda) 24,1 foizni tashkil etdi. Valyuta siyosatining liberallashtirilishi natijasida bank sektorida dollarlashuv darajasi sezilarli darajada pasaydi. Xususan, 2017-yilda banklarning xorijiy valyutadagi aktivlarining jami aktivlaridagi ulushi 64 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 50,2 foizgacha kamaydi. Shuningdek, ushbu davrda xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi 62,3 foizdan 49,9 foizgacha, xorijiy valyutadagi depozitlar ulushi esa 48,4 foizdan 43,1 foizgacha kamaydi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mutaxassislar taqdim etgan tahlillar O'zbekistonda moliya bozorining likvidligi talab darajasida emasligini ko'rsatadi. Ikkilamchi bozorning mavjud holati va aholi boshqa qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining moliya bozoridagi faoliyatini susaytirmoqda. Iqtisodiyotning real sektori va moliya bozoridagi uzilishlar sababli korxonalariga investitsiya mablag'larini jalb qilish uchun moliya bozorining zamonaviy vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelinyapti. Uy xo'jaliklarining moliya bozoriga kirib borishi orqali 32,9 foizni tashkil etadi. Taqqoslash uchun, xususiy banklarda bu ko'rsatkich qariyb 96 foizni tashkil etadi. Jismoniy shaxslar depozitlari bank tizimidagi jami depozitlarning atigi 24 foizini tashkil etadi, bu YalMning taxminan 5 foizini tashkil etadi. Bugungi kunda aholi jamg'armalarini bank-moliya tajribasida keng qo'llaniladigan birja, lizing, reytinglash, qayta sug'urtalash, brokerlik, mulkni baholash, moliyaviy maslahat berish, moliyaviy resurslarni ishonchli boshqarish kabi xizmatlarni ko'rsatish kutilgan natijalarni bermayapti.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Bank tizimi samaradorligini va banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, shuningdek bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda bank tizimida davlat ulushini kamaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish Strategiyasi to'g'risida» Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga muvofiq,

Ipoteka bank, O'zsanoatqurilishbank, Asakabank, Aloqa bank, Qishloq Qurilish bank va Turon bankni xususiylashtirish to'g'risida qaror qabul qilindi. 2020-yilda strategiyani amalga oshirish doirasida Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) Ipoteka bankka bankni xususiylashtirishni qo'llab-quvvatlash va kichik va o'rta biznesga kreditlarni ko'paytirish uchun o'zbek so'mida 35 mln. AQSh dollari miqdorida kredit ajratdi. Bundan tashqari, «O'zsanoatqurilishbank» transformatsiya dasturini amalga oshirishni boshladi. Bank o'zining biznes modelini tijoratlashtirish va korporativ boshqaruvni isloh qilish bo'yicha birinchi qadamlarni qo'ydi. Shu bilan birga, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (ERDB) bankka xususiylashtirish, g'aznachilik operatsiyalarini takomillashtirish, aktivlar va passivlarni boshqarish bo'yicha ko'mak va maslahatlar beradi. Xususan, 2020-yilda "O'zsanoatqurilishbank" va ERDB o'rtasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar, eksportyorlar, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish uchun 40 mln. dollar miqdorida kredit liniyasini jalb qilish to'g'risida kredit shartnomasi imzolandi. Bank anderayting joriy etdi va bu kreditlash operatsiyalarini xodimning ishtirokisiz amalga oshirishga imkon beradi. Pandemiya va O'zbekistonda joriy qilingan lokdaun masofaviy bank xizmatlarini jadal rivojlanishiga yordam berdi. Xususan, 2021-yil 1-yanvar holatiga masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni 14,5 mln kishini tashkil etdi. (shundan 13,7 mln kishi jismoniy shaxslar, 822 ming kishi tadbirkorlik sub'yektlari) bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 foizga ko'proqdir. Markaziy bank tomonidan raqamli banklar va fiialarning ishlashiga litsenziya berilishi ham bank-moliya tizimini yanada raqamlashtirishga turtki bo'ldi va mijoz va bank o'rtasidagi munosabatlarda zamonaviy yondashuvlarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun katta hajmdagi investitsiyalar zarur bo'ladi. Investitsiyalarni esa moliya bozori va qimmatli qog'ozlar bozori orqali olib kelish mumkin. Shuning uchun ham mamlakatning iqtisodiy o'sishida moliya bozori va qimmatli qog'ozlarning roli nihoyatda kattadir. Moliya bozori hamda zamonaviy moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Faqat shunday sharoitdagina investitsiya faoliyatini faollashtirish va investitsiya oqimlarini ishlab chiqarish, so'ngra esa yuqori texnologiyalar sohasiga qayta yo'naltirish mumkin bo'ladi. Zamonaviy moliya bozorlarining asosiy unsurlarini yaratmasdan turib, iqtisodiy o'sish asosiy omillaridan biri hisoblangan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning kirishiga erishib bo'lmaydi. Moliya bozori yordamida iqtisodiyotda pul mablag'lari harakati ta'minlanadi, shuningdek, moliya resurslarini beto'xtov shakllantirish, ulardan samarali foydalanish va sarmoyalash amalga oshiriladi. U

investitsiyaga aylanayotgan pulning xo‘jalikning turli sohalari o‘rtasida erkin ko‘chib yurishi, moliya resurslaridan erkin va oqilona foydalanishni ta‘minlaydi.

- tijorat banklari va nobank moliya institutlarining investitsion faolligini yanada kuchaytirish hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi ishtirokini yanada kengaytirish;

- moliya bozorini yanada rivojlantirish hamda mablag‘lardan samarali foydalanish maqsadida moliya bozorida hisob-kitob, kliring tizimi barqarorligini oshirish va unga zamonaviy xalqaro tajribalarni joriy etish;

- moliyaviy aktivlar likvidligini oshirish, moliya bozorida innovatsiyalarni yaratish maqsadida moliyaviy aktivlar sekyuritizatsiyasi uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;

- moliya bozoridagi likvidlikni tartibga solish maqsadida REPO, SVOP operatsiyalarini yanada rivojlantirish;

- moliya bozorida faoliyat yurituvchi moliya institutlari tomonidan xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda zamonaviy moliyaviy xizmatlar ko‘lamini yanada kengaytirish;

- global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida jahon moliya bozori rivojlanishining ilg‘or xorij tajribasini tahlil qilish va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini baholash.

Milliy iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilishda mamlaktimizda shakllanib borayotgan qimmatli qog‘ozlar bozori salohiyatidan ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishning ishonchli vositasiga aylantirish muhim ahamiyatga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “2020 — 2025-yillarda o‘zbekiston respublikasi bank-moliya akademiyasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 8-iyundagi VMQ-365.

2. <https://review.uz/uz/post/obzor-dinamiki-razvitiya-finansovo-bankovskogo-sektora-uzbekistana-za-2017-2020-god>

3. <https://zamin.uz/uz/iqtisodiyot/40725-ozbekistonda-moliya-bozori-qachon-rivojlanadi.html>